



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 10-fevral

80-11-0-Q/25

Farg‘ona viloyati hokimligi

Farg‘ona viloyatida mavjud yer resurslarining holati, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi yuzasidan 2025-yil 1-yanvar holatiga bo‘lgan yer hisobotini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat Yer kadastri” to‘g‘risidagi Qonunning 10- va 11-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi “Davlat kadastrlarini yuritish sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 389-sonli hamda 2023-yil 30-oktyabrdagi “Yer resurslarining holati bo‘yicha milliy hisobotni yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 578-sonli qarorlariga asosan, Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan “Farg‘ona viloyatida mavjud yer resurslarining holati, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi yuzasidan 2025-yil 1-yanvar holatiga bo‘lgan yer hisobotini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hisobotini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 21¹-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN

1. Quvasoy shahar hokimining 2025-yil 17-yanvardagi 19-11-167-Q/25-sonli, Farg‘ona shahar hokimining 2025-yil 8-yanvardagi 4-11-169-Q/25-sonli, Beshariq tumani hokimining 2025-yil 8-yanvardagi 3-11-153-Q/25-sonli, Bag‘dod tumani hokimining 2025 yil 17-yanvardagi 31-11-152-Q/25-sonli, Buvayda tumani hokimining 2025yil 18yanvardagi 10-11-154-Q/25-sonli, Dang‘ara tumani hokimining 2024-yil 24-dekabrda 305-11-155-Q/24-sonli, Yozyovon tumani hokimining 2024-yil 28-dekabrda 389-11-165-Q/24-sonli, Quva tumani hokimining 2024-yil 26-dekabrda 313-11-156-Q/24-sonli, Oltiariq tumani hokimining 2025-yil 20-yanvardagi 18-11-151-Q/25-sonli, Qo‘sh tepa tumani hokimining 2024-yil 27-dekabrda 446-11-157-Q/24-sonli, Rishton tumani hokimining 2024-yil 26-dekabrda 435-11-158-Q/24-sonli, So‘x tumani hokimining 2025-yil 18-yanvardagi 13-11-159-Q/25-sonli, Toshloq tumani hokimining 2025-yil 7-yanvardagi 4-11-160-Q/25-sonli, O‘zbekiston tumani hokimining 2025-yil

17-yanvardagi 28-11-161-Q/25-sonli, Uchko‘prik tumani hokimining 2024-yil 25-dekabrda 362-11-162-Q/24-sonli, Farg‘ona tumani hokimining 2025-yil 20-yanvardagi 24-11-163-Q/25-sonli, Furqat tumani hokimining 2024-yil 28-dekabrda 328-11-164-Q/24-sonli, Qo‘qon shahar hokimining 2024-yil 27-dekabrda 343-11-166-Q/24-sonli, Marg‘ilon shahar hokimining 2025-yil 28-yanvarda 161-11-168-Q/25-sonli qarorlari;

-Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 21-yanvarda 04/25-08/54-sonli hulosasini inobatga olib, Oltiariq tumani hokimining ekin yer maydonlarida yangidan tashkil etilgan ko‘p yillik daraxtzorlar yer maydonlarini ko‘p yillik daraxtzorlar turiga o‘tkazish to‘g‘risida 2025-yil 23-yanvarda 21-11-151-Q/25-sonli qarori hamda Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan “Farg‘ona viloyatida mavjud yer resurslarining holati, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi yuzasidan taqdim etilgan 2025-yil 1-yanvar holatidagi yillik hisoboti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari M.Ubaydullayev, viloyat hokimining o‘rinbosari A.Tursunov, Davlat Kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi (R.Mirzaxmedov) va viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasiga mutasaddi viloyat tashkilotlari rahbarlari hamda shaharlar va tumanlar hokimlari bilan birgalikda belgilangan tartibda:

- yer resurslaridan belgilangan maqsadda, oqilona va samarali foydalanish, yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, ayniqsa qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan mavjud yer maydonlarini amaldagi qonunlar doirasida muntazam muhofaza qilinishini ta‘minlash maqsadida doimiy monitoring yuritilishini tashkil etish;

- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar hisobotini doimiy yuritish, bunda davlat yer kadastri tartiblarida ish yuritish, amaldagi tartiblar asosida yer solig‘ini hisoblash va undirish hamda yerlardan samarali foydalanishni tashkil etish;

- foydalanishdagi yer maydonlarini qonun doirasida himoya qilish va talon-tarojlikdan saqlashga alohida e‘tibor qaratish, noqonuniy holatlar aniqlangan holatda aybdorlarga nisbatan keskin choralar ko‘rish tadbirlarini belgilash;

- yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlashga va yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olinishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan samarali nazoratni amalga oshirilishini ta‘minlash vazifalari yuklatilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi (R.Mirzaxmedov):

- yer qonunchiligiga amal qilgan holda viloyat bo‘yicha yer kadastri hisobotlarini yuritilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatish;

- yer ajratishga hamda yerdan foydalanishga oid qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlariga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslar to‘g‘risida viloyat hokimligiga doimiy ravishda ma’lumot taqdim etib borilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari M.Ubaydullayev hamda viloyat hokimining o‘rinbosari A.Tursunov zimmlariga yuklansin.

Viloyat hokimi



X. Bozarov

Farg'ona viloyat hokimining
2025-yil 10-fevraldagi
80-11-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Farg'ona viloyatida mavjud yer resurslarining holati, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va yer turlari bo'yicha taqsimlanishi yuzasidan 2025-yil 1-yanvar holatiga bo'lgan

H I S O B O T I

№	I. Yer egalari va yerdan foydalanuvchilar bo'yicha yer taqsimoti	(gektar)
1	Qishloq xo'jalik kooperativ(shirkat)lari va fermerlar	519922
	Shundan: Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga qarashli	15735
	“O'zmevasabzavotuzumsanoat”-xolding kompaniyasiga qarashli	
	“O'zgo'shtsutsanoat” aksionerlik uyushmasiga qarashli	
	Viloyatga qarashli	500187
2	Boshqa vazirliklar, tashkilotlar va korxonalariga qarashli yerlar	10106
3	Qishloq xo'jalik ilmiy - tekshirish muassasalari va o'quv yurtlari	1813
4	Yordamchi qishloq xo'jalik korxonalari	3635
5	Xususiylashtirilgan fermalar	235
6	Jami qishloq xo'jalik korxonalar va tashkilotlari	531710
	<i>Shu jumladan: ijaradagi fermer xo'jaliklari</i>	311698
	<i>ijaradagi dehqon xo'jaliklari</i>	24230
7	Zahira yerlar	31500
8	O'rmon xo'jaligi yerlari	19305
9	Aholi yashash joylari (shahar va shahar turidagi qishloqlar)	18517
10	Sanoat, transport, mudofaa, aloqa va boshqa maqsadlar uchun belgilangan yerlar	49172
11	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	369
12	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	3317
13	Gidrotexnik va boshqa suv inshootlari uchun ajratilgan hamda kanal bo'yidagi yerlar	21393
	J a m i y e r l a r :	675281
14	Viloyat ma'muriy chegarasidan tashqarida foydalanadigan yerlar	619
	Viloyat ma'muriy chegarasidagi jami yerlar	675900
	II. Yer turlari bo'yicha taqsimlanishi	
1	Ekin yerlar	240358
2	Ko'p yillik daraxtzorlar	58383
	<i>Shundan: bog'lar</i>	50313
	<i>Tokzorlar</i>	4558
	<i>Tutzorlar</i>	3388
	<i>mevali ko'chatzorlar</i>	123
3	Jami yaylovlar:	9516
	shundan sug'oriladigani	3902
4	Jami qishloq xo'jalik yer turlari:	308257
	shundan sug'oriladigani	302643
5	Jami tomorqa yerlari:	72134
	shundan sug'oriladigani	51718

6	Bog'dorchilik va sabzavotchilik uyushmalarining yerlari	855
7	Meliorativ qurilish xolatidagi yerlar	1850
8	Jami o'rmonzorlar	14622
9	Jami foydalanilmaydigan yerlar	277567